

**XORIJIY SOTSIOLINGVISTIKA"NING LINGVISTIK OLIMLAR TOMONIDAN O'RGANILISH  
JARAYONLARI VA IJTIMOIY HAYOTDA TADBIQ ETISH OMILLARI**

Narqabilova D. N

TerDU linnistik (o'zbek tili) 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada „xorijiy sotsiolingvistika”ning lingvistik olimlar J.A. Fishman, A.Keypel, V.Gumboldt, Bernstayn, D.Xayms, J.Gampers va boshqalar tomonidan o'rganilish jarayonlari va ijtimoiy hayotda tadbiq etish omillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Xorijiy sotsiolingvistika, til sotsiologiyasi, til, jamiyat, etnolingvistika.

“Xorijiy sotsiolingvistika” da rivojlangan o'nta davlatdagi til siyosati , tillar vaziyati, tasvirlanib, tavsiflanadi. Demak, tildagi vaziyat va o'rganilgan obyektiv tasvirlash va o'rganilgan obyektiv tasvirlash va tavsiflash tilning ijtimoiy vazifasi, standart va nostandart va bilingvizim va diglassiya hodisalari va hokoza kabi tildagi sotsium (jamoa a'zolari ) ning davlat tillariga munosabati, ularni amalda ishlatish darajasi kabi bilimlarni berishga mo'ljallangan.

Xorijiy sotsiolingvistika fanida undagi ikkita termin „til sotsiologiyasi” va „sotsiolingvistika” terminiga turli lingvistik olimlar turlicha talqin qiladilar.

AQSH sotsiolingvisti J.A. Fishman „ til sotsiologiyasi ” va „sotsiolingvistika”ni sinonim sifatida qo'llanishga e'tibor qaratgan.A.Keypel „Etnolingvistika” termini sotsiolingvistika terminiga ko'ra umumiyroq xarakterga ega bo'lsada sotsiolingvistika termini ma'quldir, chunki bu nomning o'z -o'zini aniqlab keladi. Demak sotsiolingvistika ijtimoiy vaziyatdagi tilning lingvistik xususiy va hissiy holatlarni aks ettiradi. Germaniya sotsiolingvistikasida ikkinchi yo'naliш „sotsiolingvistik” muammolarga ma'lum ma'noda tegishli bo'lgan,tilga „xalq ruhi” , milliy tafakkur ifodasining mahsuli sifatida qaraydigan va V.Gumboldt va uning izdoshlarining nazariy fikrlaridir. V.Gumboldt bu g'oyalarni lingvistlarning emas,balki faylasuflarning e'tiborini tortdi.Til va jamiyat va til va madaniyat kabi masalalar dolzarb mavzu bo'lib qoldi. Bernstayn g'oyalari tanqidga uchragan bo'lsada 1970-yillardagi farazning asosiy mazmuni empirik tekshirish va tanqid qilish salmoqli o'rinn tutdi. Boshqa mamlakat sotsiolingvistlari ham xususan Labov D.Xayms, J.Gampers, M.Kultard H.K tadqiqotlariga qiziqish ortdi, ular nemis tiliga tarjima qilindi. German sotsiolingvistlari „sotsiolingvistik”ko'p nusxalik ko'proq e'tiborni tortdi. Xullas, Germaniyada sotsiolingvistikaga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. 1989 -yil V Ammon , K Mattxayer va P.Nildning tahriri

„Sociolinguistica, International Yaxurbuch fur Europeische Soziolinguistik ”jurnali nashr qilina boshlandi. D.Vunderlik sotsiolingvistik tadqiqotlarida 4-xil yondoshuvni ko'rsatib o'tadi.

1.Sotsiolingvistikani keng tushunish ,ijtimoiy va individual jihatlarning o'zaro aloqasini o'rganishga asoslanadi. D.Vunderlix nazariyasida jamiyat va unga asoslangan til nazariyasi bilan bog'lab, unga alohida individlar fikrlarining lingvistik tasvirini izohlashga qaratilgan.

2.Sotsiolingvistikani keng ma'noda jamiyatning ijtimoiy differensiatsiyasi qandaydir asos sifatida o'rganish nutqiy vaziyat ,nutqiy muomalaning rol mavzu turlariga ajraladigan sotsiologik o'lchov bilan bog'laydi.

3.Tor ma'noda sotsiolingvistika nutqiy muomalaga bog'liq boshqa omillarni hisobga olmasdan,til kodlari turlarini sotsiologik o'lchovlar bilan bog'laydi.

4. Yana bir tor ma'nodagi sotsiolingvistikada til muomalasi sotsiologik o'lchovlar ( vaziyat ,rol, ijtimoiy muhit) o'rtasidagi munosabat o'rganiladi.

Bu yondoshuvlar keng tarqalgan , lekin yuzaki bo'lib, so'zlashuvchi muayyan vaziyatda o'zini boshqacha emas, aynan shunday tutishini tushuntirib beraolmaydi. Adresant har qanday vaziyatda har xil muomalaga kirisha oladi.

Shuning uchun ham bu yondoshuv yuzaki holatda aks ettirgan, lisoniy tafakkurda har xil vaziyatda aynan o'z aksidek bo'la olmaydi va o'zgaruvchi hodisani amalga oshiradi. Ispan lingvistlari ham sotsiolingvistikaga oid M.Alvar „Strukturalizm”,lingvogeografiya va zamonaviy dialektologiya” nomli monografiyasida zamonaviy dialektologiyadagi tilga sotsiologik yondoshuvning bir necha muammolarini ko'rsatib beradi. Lotin Amerikasi davlarlaridagi ijtimoiy rivojlanish va uning lisoniy oqibatlari, katta shaharlardagi ijtimoiy qatlamlar nutqidagi farqlar,yosh va jins farqlari shular jumlasidandir.

1966 - yilda M.Alvar A.Kilis bilan birgalikda Madrid shahri nutqini ijtimoiy qatlamlarga ko'ra o'rganish loyihasini ishlab chiqdi. M.Alvar fikricha faqat bir me'yorni o'rganish til tizimini uning dinamikasida butunligicha ko'rish imkonini bermaydi;barcha qatlamlar nutqini butun ikir -chikirigacha o'rganish zarur.

Alvar fikri qiyosiy jihatdan qaralganda tog'ri, chunki katta shahar misolida ijtimoiy qatlamda til almashinuv jarayolari turlicha tahlil va talqin qilinadi. M.Alvar shahar va qishloq nutqining o'zaro aloqasi yuz beradigan tog'li, chekka hududlar aholisining nutqini ham o'rganishga alohida e'tibor qaratadi.

F.Markosa Marinning tadqiqotida ham tilni belgilar tizimi sifatida aniqlash chetga suriladi va har bir tarixiy tilning ichidagi ko'plik tizimlari haqida xulosa chiqariladi. Mazkur tizimlar aniq differensiyalash emas, ular har bir so'zlovchi tinglovchining lisoniy salohiyati doirasida birini to'ldiradi. Umuman , Ispaniyada til jamiyat yo'nalishidagi sotsiolingvistik tadqiqotlar endigina rivojlanishga qadam qo'ygan, aksincha, sotsiologiyasi borasida esa talaygina ishlar amalga oshirilgan.

Lingvistik olimlar tadqiqot natijalarida „Sotsiolingvistika” va „til sotsiologiyasi” ikki termin ham jamiyat va kishilar o'rtasidagi muayyan vaziyatda muayyan holatda kishilarning lingvistik munosabat kirishishiga xizmat qiladi. Darhaqiqat, tilsiz jamiyat bo'lmannidek jamiyatsiz ham til bo'lmaydi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq.

P.Lafarg aytganidek „O'simlik o'ziga xos iqlimdan uzoqda o'solmaganidek „til ham o'zining ijtimoiy muhitidan uzoqda bo'lolmaydi”. Til ham o'z muhitida kengaya olish imkoniyatiga egadir.

**Foydalilanlgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bradley David.Language policy and language endangerment in China// International Journal of the Sociology of Language 173(2005).-P.1-21.
2. Hongkai Sun.Research on the endangered languages of China // New developments in Chinese linguistics -Hong-Kong, 1999 -P .3-17
- 3.Usmonova Sh.Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari;filologiya, tarix, iqtisodiyot va siyosat,-Toshkent; TDSHI, 2013.- B. 165-167.